



№12 Ma`ruza

EKOLOGIYA VA HUQUQ. TABIAT MUHOFAZASINING HUQUQIY ASOSLARI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

- 1. Ekologiya huquqi tushunchasi**
- 2. Ekologiya huquqining maqsadi**
- 3. Ekologiya huquqining vazifalari**
- 4. Ekologik huquq ob`yekti va tamoyillari**
- 5. Ekologiya huquqining metodi**
- 6. Ekologik javobgarlik va uning funktsiyalari**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

Ekologik aforizmlar



«...atrof-muhitni muhofaza qilish aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rnini belgilashga qaratilgan «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi, deb o'ylaymiz».

I.A.Karimov

Ekologiya huquqi

Ekologiya huquqining tushunchasi Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik turli yo`nalish va shakllarda uzoq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda. Asrlar davomida insoniyat tabiat qonuniyatlariga moslashib, o`zining turli ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanib, unga ta'sir o`tkazmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat a'zolari ongining tobora takomillashishi, yangi mehnat qurollarining ixtiro etilishi o`z navbatida, insonning turli ehtiyojlarining rivojlanishiga olib keldi. Inson o`z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanib salbiy ta'sir ko`rsata boshladi.

Ekologiya huquqining tushunchasi

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik turli yo`nalish va shakllarda uzoq vaqt davomida amalga oshirilib kelinmoqda. Asrlar davomida insoniyat tabiat qonuniyatlariga moslashib, o`zining turli ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanib, unga ta'sir o`tkazmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat a'zolari ongining tobora takomillashishi, yangi mehnat qurollarining ixtiro etilishi o`z navbatida, insonning turli ehtiyojlarining rivojlanishiga olib keldi. Inson o`z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanib salbiy ta'sir ko`rsata boshladi. Jamiyat a'zolarining tabiatdan foydalanish bo'yicha ehtiyojlarining oshishi, tabiiy resurslardan foydalanish qurollari, ya'ni texnikaviy vositalarning takomillashishiga olib keldi.



Ekologiya huquqi

Ekologiya huquqi bugungi kunda O`zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o`z o`rni va salohiyatiga ega, alohida yo`nalish va xususiyatlarga bo`lgan huquq sohasi hisoblanadi. Yurtimizda ekologik huquqiy munosabatlarga oid o`ttizga yaqin qonun, 350 dan ortiq qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va amalda qo`llanillmoqda. Bugungi kunda tabiat-jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlar uchta quyidagi asosiy yo`nalishlarda paydo bo`ladi: 1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq ekologik - huquqiy munosabatlar; 2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog`liq ekolo-gik-huquqiy munosabatlar; 3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekolo-gik-huquqiy munosabatlar.


EKOLOGIYA XUQUQI -

**O'ZBEKISTON XUQUQ TIZIMINING
YAXLIT TARMOG'I HAMDA
HOZIRGI VA KELAJAK AVLOD
MANFAATLARI YO'LIDA JAMIYAT,
TABIAT VA INSONNING O'ZARO TA'SIRI
SOHASIDAGI IJTIMOIIY (EKOLOGIK)**

**MUNOSABATLARNI
XUQUQIY JIHATDAN
TARTIBGA SOLUVCHI FAN.**

Ekologiya huquqi

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash insoniyatning ongli faoliyati bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, ekologiya huquqi tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ochib beradi, boshqa ekologiya huquqi institut-larini kengroq o'rganish uchun nazariy asos hisoblanadi, ekologik siyosatning shakllanishiga va rivojlanishiga keng ta'sir ko'rsatadi, ekologik-huquqiy ong va tafakkur hamda ekologik-huquqiy ma'naviyat va madaniyatning negizini yaratadi.



- BMT Nizomining 2-moddasida ko'rsatib o'tilgan va uning hamma a'zolari uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari xalqaro ekologik prinsiplarning asosi hisoblanadi. Xalqaro ekologik prinsiplar Stokgolm, Rio-de-Janeyro, Yoxannesburg konferensiyalarining deklaratsiyalarida, Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy Xelsinki hujjatida va Umumjahon tabiat Xartiyasida va shu kabi xalqaro huquq manbalarida o'z aksini topgan.


Ekologiya huquqi

Ekologiya huquqi tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ochib beradi, ecologic siyosatning shakllanishiga va rivojlanishiga keng ta'irk o'rsatadi, ekologik-huquqiy ong va tafakkur hamda ecologic huquqiy ma'naviyat va madaniyatning negizini yaratadi. Ekologiya huquqi boshqa huquq tarmoqlaridan o'zining subekti va ob'ektiga egaligi, davlat ekologik boshqaruv tizimi mavjudligi, ekologik huquqiy normalarga rioya qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish, halqaro ekologiya huquqi normalari bilan bog'liqligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Buni keng ma'noda ecologiyaga oid muammolar chegara bilmasligi va global tusga ega ekanligi bilan tushuntirish mumkin.



Ekologiya huquqining maqsadi

Ekologiya huquqining asosiy maqsadi - tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi muvozanatni saqlash, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni huquqiy ekologik muhofaza qilish hamda jamiyatdagi ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan iborat.



Ekologiya huquqining vazifalari

Ekologiya huquqi fanining hozirgi kundagi asosiy vazifalari quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosatini mustalikamlash;
- mustaqil respublikamizdagi mavjud tabiat boyliklaridani oqilona foydalanish va ulami ekologik-huquqiy muhofaza qilish:
 - iqtisodiy, huquqiy, geografik xususiyatlarni inobatga olib ekologiya sohasida qabul qilingan qonin ustuvorligini ta'niinlash;
 - xalqimiz, ayniqsa yoshlar o'rtasida ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish;
 - ommaning huquqiy-ekologik ma'naviyati va madaniyatini yanada yuksaltirish;
 - ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini mustalikamlash

Ekologiya faning vazifalari



Ekologik huquq ob`yekti va tamoyillari



Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o`rtasida paydo bo`ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o`rganuvchi fandır.



Ekologiya huquqining tamoyillari - tabiat-jamiyat tizimidagi o`zaro munosabatlar yo`nalishi, chegaralarini belgilab berishda ekologik-huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonun-chilik qoida-talablarning ekologik munosabatlarini tartibga solish tartibini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.



Ekologiya huquqining obyekti – tabiiy obyektlar, tabiiy resurslar va tabiiy komplekslarga yoki integrallashgan, differensiatsiyalashgan (tabaqalashgan) va alohida muhofaza etiladigan hamda xalq xo`jaligi bo`yicha tarmoqlashgan obyektlarga ajratadilar.

Ekologiya huquqining metodi

Ekologiya huquqining metodi: tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, muvozanatni aks ettiruvchi ekologik-huquqiy bilimlar olishda qo'llaniladigan ilmiy faoliyat prinsiplari va usullaridan iborat. Ekologiya huquqining metodlarini xususiyatiga ko'ra Ikki gismga bo'lish mumkin. Birinchisi, barcha o'quv fanlariga xos bo'lgan metodlar bo'lib, ularning asosida tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlari yotadi. Ikkinchisi esa maxsus metodlar bo'lib, ularga tarixiy, mantiqiy, sotsiologik, qiyosiy va sistemali metodlar kiradi. Ushbu talabdan kelib chiqadigan bo'lsak, ekologiya huquqi fanining metodlari tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va muvozanat, ularning rivojlanish qonuniyatlari, tabiatni hozirgi va kelajak avlod uchun saqlashning ahvoli va mohiyati haqida ekologik-huquqiy bilim olishga yordam beruchi usul va vositalar birligidan iborat.



Ekologik javobgarlik

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikka tortish masalalari O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik me'yorlarida belgilangan. Ma'muriy kodeksda jinoyat turiga qarab turli miqdorda jarimalar to'lash va ma'lum huquqdan mahrum qilish jazolari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 4-bo'limi «Ekologiya sohasidagi jinoyatlar» deb yuritiladi.

Ekologik javobgarlik

Tabiiy muhitga zarar yetkazishning oldini olish va zarar yetkazilgan taqdirda uni qoplash borasidagi munosabatlarni ifodalovchi normalardan iborat iqtisodiy-xuquqiy kompleksdir.

Ekologik javobgarlik

Ekologik javobgarlikning funksiyalari

Qoplash funksiyasi

Tabiiy muhitga yetkazilgan yo'qotishlarni natura yoki pul shaklida qoplashga qaratilgan

Rag'batlantirish funksiyasi

Ekologik muhofaza qilishga majbur etuvchi iqtisodiy va xuquqiy rag'batlar mavjudligida namoyon bo'ladi

Preventiv funksiyasi

Jazo choralarini qo'llash va zararni undirish orqali ekologik munosabat ishtirokchilarining xulq-atvoriga majburan ta'sir ko'rsatadi

Ekologik javobgarlik

Jinoyat kodeksida ekologiya sohasidagi turli jinoyatlar uchun jarima to'lash, muayyan huquqdan mahrum qilish, mol-mulkni musodara qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish choralari belgilangan. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan yangi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi jinoiy va jinoiy protsessual kodekslar respublikada tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish ishlarida muhim rol o'ynaydi. Respublikada tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar xalqaro huquqiy me'yorlarni hisobga olib tuzilgan va xalqaro tashkilot ekspertlari tomonidan baholangan. Bu qonunlar respublikada ekologik barqarorlikni ta'minlas



Ekologik javobgarlik

Tabiatni muhofaza qilish to`g`arisidagi qonunni buzganlik uchun intizomiy, ma`muriy, jinoiy, moddiy javobgarliklar quyidagi holatlarda sodir bo`ladi:

- 1. Davlatning tabiat manbalariga nisbatan egalik huquqi buzilganda; tabiiy boyliklardan o`zboshimchalik bilan foydalanilganda;**
- 2. Davlat ekologiya ekspertizasi talablari bajarilmaganda;**
- 3. Atrof muhitni ifloslagani uchun belgilangan haqni to`lashdan bosh tortganda;**
- 4. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar va ob`yektlarning huquqiy tartiboti buzilganda;**
- 5. Atrof muhitga zararli ta`sirni hisobga olish qoidalari buzilganda;**
- 6. Atrof muhit holati va uning resurslaridan foydalanish to`g`risida o`z vaqtida va to`g`ri axborot berishdan bosh tortganda.**

Ekologik huquq manbalari



Mavzu yuzasidan savollar:

- 1. Ekologiya huquqi tushunchasini izohlab bering?**
- 2. Ekologiya huquqining maqsadi nimadan iborat?**
- 3. Ekologiya huquqining vazifalari qanday?**
- 4. Ekologik huquq ob`yekti va tamoyillarini qanday izohlaysiz?**
- 5. Ekologiya huquqining metodini tushuntirib bering?**
- 6. Ekologik javobgarlik va uning funktsiyalari nimalardan iborat?**



A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver, curly ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun
tashakkur***